Анализ влияния цифровой экономики на эффективность налоговых органов .....	996
<b>Бобомуротова Манзура Панжи кизи</b>	
Tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati.....	1000
<b>Irmatova Lola</b>	
Korxonalarda pul mablag'lari auditini takomillashtirish yo'llari.....	1005
<b>Karamatova Noiba Xusniddinovna</b>	
Hududlarda inklyuziv turizmni rivojlanish muammolari va istiqbollari.....	1010
<b>Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li, Ibragimov Behruz Ravshan o'g'li</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlikning muhim omilidir .....	1014
<b>Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich</b>	
Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillarini takomillashtirish.....	1017
<b>Pardayeva Shahnoza Abidinabiyevna</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1022
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	



Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oilaviy korxonalarining xizmatlar ko'rsatish sohasidagi o'rni va funksiyalari.....	1026
<b>Tog'ayeva Dilnoza Azamatovna</b>	
Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
<b>Тула Нодирбек Баходир угли</b>	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
<b>Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи</b>	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
<b>Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich</b>	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
<b>Sherqulov Nodir Erkin o'g'li</b>	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# ELEKTROTEXNIKA SANOATI KORXONALARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Mamayusupova Mashxura Sodiqovna**

FarPi tayanch doktoranti



**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunga kelib cheklangan resurslardan yanada oqilona va samarali foydalanish zarurligi va iqtisodiyotning barqarorlashuv jarayonini ta'minlashda kafolat ekanligi bosh masala sifatida asoslangan. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish, yashil iqtisodiy o'sishga erishishda elektrotexnika sanoati mahsulotlarining o'rni qay darajada muhim ekanligi yoritilgan. Shuningdek, Jahon mamlakatlari qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) dan foydalanishda oylik elektr energiyasi ishlab chiqarish va savdo ma'lumotlari va boshqa bir qancha mamlakatlar uchun elektr energiyasi ishlab chiqarish ma'lumotlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, muqobil energiya, ekologik toza manbalar, tabiiy gaz, elektrotexnika, atrof-muhit muhofazasi, energiya ishlab chiqarish hajmi.

**Abstract:** The main issue in the article is the need to use limited resources more rationally and efficiently and guarantee the stabilization of the economy. The role of electrotechnical industry products in the transition to "green" economy and achieving green economic growth is highlighted. It also provides monthly electricity generation and sales data from renewable energy sources (QTEM) of the world's countries and electricity generation data for several other countries.

**Key words:** green economy, alternative energy, ecologically clean sources, natural gas, electrical engineering, environmental protection, energy production volume.

**Аннотация:** Основным вопросом в статье является необходимость более рационально и эффективно использовать ограниченные ресурсы и гарантировать стабилизацию экономики. Подчеркнута роль продукции электротехнической промышленности в переходе к "зеленой" экономике и достижении зеленого экономического роста. Он также предоставляет ежемесячные данные о производстве и продажах электроэнергии из возобновляемых источников энергии (QTEM) в странах мира и данные о производстве электроэнергии в нескольких других странах.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, альтернативная энергетика, экологически чистые источники, природный газ, электротехника, охрана окружающей среды, объем производства энергии.

## KIRISH

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda mamlakatda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari jadallashtirish, "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada, mamlakatda "yashil" iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlangan.

"Yashil taraqqiyot"ga erishish uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim bo'lmoqda. Shu tufayli mamlakatimizda bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirish lozim.

Yashil iqtisodiyot bu muayyan joyda (mamlakat, shahar, kompaniya, jamoa va boshqalar) qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari (sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish) majmuyi bo'lib, ular ham





ekologik, ham ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanishga olib kelishi kerak. Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni jam iytodagi ahamiyati ortib bormoqda, insoniyat jahon iqtisodiyotini xavf ostiga qo'ymagan holda atrof-muhitga g'amxo'rlik qilishi lozim.

Jamiyat farovonligi tabiiy resurslarni mahsulotga aylantirishga bog'liq bo'lib, hozirda biz ulardan tabiatning o'zini tiklashi mumkin bo'lganidan tezroq foydalanmoqdamiz. Jamiyat farovonligini saqlab qolishning yagona yo'li yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdir. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

*Birinchidan*, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim.

*Ikkinchidan*, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish.

*Uchinchidan*, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

*To'rtinchidan*, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

*Beshinchidan*, aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

## ILMIY MUAMMONI QO'YILISHI

A. Midilli, I. Dincer, M. Aylar o'z tadqiqotida barqaror rivojlanish uchun yashil energiya strategiyalarini taklif etishgan. Barqaror energiya strategiyalari yashil energiya (masalan, shamol, quyosh, suv toshqini, bio-massa) ko'p ishlab chiqariladigan mamlakatlar iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shishi mumkin deb hisoblaydilar. Shu sababli, yashil energiya ta'minoti va rivojlanishiga investitsiyalar Hukumat va boshqa organlar tomonidan ekologik xavfsizroq va barqaror kelajak uchun yoqilg'ilarni yashil energiya bilan almashtirish uchun rag'batlantirilishi kerak ekanligi asoslab berilgan <sup>[1]</sup>.

Resurslar tanqisligi, ekologik muammolar va iqtisodiy xavflar kabi bugungi kun muammolari A. V. Vaxabov, Sh. X. Xajibakiyev, Sh.A.Tashmatov, M. T. Butaboyevlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan <sup>[2]</sup>. Ularning ilmiy ishlarida va ilmiy adabiyotlarida shu kabi muammolarga faqatgina yashil iqtisodiyotga o'tish orqali erishish mumkinligi qayd etilgan.

MDH vakillari T. V. Zaxarova, Valentin Pchelintsev, Tatyana Kruglikova, Irina Jivotovskaya, Tatyana Chernomorova, Tkachenko Aleksandr Aleksandrovich va boshqalar, yashil iqtisodiyotga o'tish zarurligi va bu mamlakat rivojiga yuqori darajada ta'sir etishini ta'kidlab o'tishgan <sup>[3]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi 200 yil ichida Yer kurrasida iste'molchilar soni 5 marta ko'paydi, ammo yer sathi, tabiiy boyliklar ko'paygani yo'q. Iqlim o'zgarishlari ham kuchayib bormoqda. Yer kurrasining 72% okeanlardan iborat, quruqlikning esa bir qancha qismida yashashga imkoniyat yo'q. U kabi muammolarga barham berish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategiyalar bilan birga olib borilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish o'rinlari yaratish kabi turli ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, shu bilan birga atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish maqsadlarida yangi muqobil energiyalardan foydalanish orqali samaradorlikka olib boruvchi elektrotexnika mahsulotlarini yaratish muhim masala bo'lib bormoqda. Innovatsion elektrotexnologiyalar ekologik samaradorlik va iqtisodiy o'sish uchun asosiy omil hisoblanadi. Eko-texnologiya - bu atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga olib keladigan har qanday elektrotexnologiyadir; bu yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy zahiralarni tejaydigan va minimal zaharli moddalarni chiqaradigan tizimlar va jarayonlarni yaratishdir. Ekoelektrotexnologiya - bu faqatgina tabiiy resurslarni va umuman atrof-muhitni saqlab qolish vositasi emas, balki resurslardan oqilona, zamonaviy, ishonchli foydalanish bilan bir vaqtda mamlakatning iqtisodiy farovonligini va umuman raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yordam beruvchi juda samarali vosita. Ekologik yo'naltirilgan rivojlanish siyosatini olib borish sur'ati innovatsion rivojlanish va innovatsion o'zgarishlar hisobiga jadallashmoqda.



Dunyo bo'ylab elektr transport vositalari tobora ommalashib bormoqda va ular energiya tejamkorligi va uglerod chiqindilarining kamayishi tufayli deyarli kelajak avtomobillaridir. Masalan, Tesla yaqinda bozor baho-sida 100 milliard dollarga ko'tarildi - bu Qo'shma Shtatlardagi birinchi ommaviy avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo'lib, yaqin orada hech qanday sekinlashuv belgisini ko'rsatmaydi.

Sanoat mutaxassislarining prognozlariga ko'ra, Qo'shma Shtatlarda yo'lda harakatlanayotgan elektromobillar soni 2018-yil oxirida atigi 1 milliondan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2030-yilga borib, 18,7 millionga etadi.

2019-yilda butun dunyo bo'ylab umumiy quvvati 200 GVt bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalari (TEM) obyektlari o'rnatildi.

Quyosh Yerdagi asosiy energiya manbai hisoblanadi, chunki har yili sayyoramizga taxminan 173 PVt (yoki 173 million GVt) quyosh energiyasi tushadi, bu esa global energiyaga bo'lgan ehtiyojdan 10 ming baravar ko'proqdir.

Quyosh panellari bulutli havoda va hatto qor yog'ishida ham energiya ishlab chiqarishi mumkin. Eng katta samaradorlik uchun ular ma'lum bir burchak ostida o'rnatilishi kerak – ekvator dan qanchalik uzoqroq va panellarni o'rnatish burchagi qanchalik katta ekani ahamiyatga ega.

Shamol energiyasi eng tez rivojlanayotgan qayta tiklanadigan energiya texnologiyalaridan biridir. IRENA nashri ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yigirma yil ichida quruqlikda va dengizda shamol energiyasini ishlab chiqarishning global quvvati deyarli 75 baravar o'sdi.

Xitoy o'n yil ichida qayta tiklanadigan energiya uskunalari bo'yicha yetakchi ishlab chiqaruvchiga aylandi. Dunyodagi eng yaxshi 10 ta quyosh batareyasi ishlab chiqaruvchisidan yettitasi Xitoy elektrotexnologiya sanoati korxinalaridir. Umuman olganda, texnologiyalarning rivojlanishi qayta tiklanadigan energiya manbalarining yangi obyektlarini qurish xarajatlarini pasaytirdi. Bu Xitoyning 2060 yilga kelib uglerod neytral bo'lishi to'g'risidagi rejalari amalga oshirishini tezlashtiradi.

Shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniya 2050 yilgacha faqat TEMdan foydalanishni rejalashtirmoqda. 2020-yil sanoat inqilobidan keyin Buyuk Britaniya elektr tarmog'i uchun eng "yashil yil" bo'ldi. Mamlakat 67 kun davomida ko'mirsiz yashay oldi. Britaniya 2025 yilga kelib an'anaviy energiya manbalaridan voz kechishni rejalashtirmoqda.

Yevropa mamlakatlarning "yashillik" ko'rsatkichi natijalariga ko'ra, mamlakatlar o'rtasida eng yuqori ko'rsatkich Shvetsiya davlatiga taalluqli bo'lib – 78,72 indeksiga teng, keying o'rinlarda esa Daniya, Chexiya hissasiga to'g'ri keladi. Eng quyi ko'rsatkich esa Ukraina – 48,32 ga teng. Xulosa qilish mumkinki, Shvetsiya yashillik ko'rsatkichlari bo'yicha taraqqiy etgan va ekologiya muhofazasi bo'yicha samarali mexanizmga ega.

Butun dunyoga mashhur elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan "Intel" shamol, quyosh, suv va biomassadan quvvat oladi. 2012 yildan beri kompaniya 2000 ta energiya tejash loyihasiga 185 million dollar sarmoya kiritdi va korporatsiya tomonidan AQSh va Yevropa Ittifoqida iste'mol qilinadigan elektr energiyasining 100 foiz qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olinadi. "Apple" ham uglerod neytral bo'lishni maqsad qilgan. U bir nechta quyosh fermalarini sotib oldi va ma'lumotlar markazlarini barqaror energiya bilan ta'minladi. 2018 yildan boshlab "Apple" barcha chakana savdo do'konlari, ofislari va ma'lumotlar markazlari 100 foiz qayta tiklanadigan energiya bilan ta'minlanadi.

O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini ro'yobga chiqarish muqobil energetikani rivojlantirishni nazarda tutadi. Elektrotexnika sanoati korxonalari qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) tizimini yaratish loyihalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi, buning uchun kamida 1 mlrd dollarlik butlovchi qismlar talab qilinadi. QTEM ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtgacha hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushini 30 foizdan ziyodga oshirish nazarda tutilgan.

Prezident Murojaatnomasida hududlardagi xonadon va korxonalarda umumiy quvvati 5-10 MVt bo'lgan QTEM qurilmalaridan foydalanish loyihalarini amalga oshirish zarurligi qayd etilgan. Kelgusi 3 yilda barcha davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o'rnatiladi. Buning uchun 2 mlrd dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilinib, uning hisobidan elektr energiyasi va gaz iste'molining 60 foizi "yashil energiya"ga o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlaydi, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotni rivojlanishida elektrotexnika kompaniyalari atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda jamiyatning hayot sifatini yaxshilash orqali iqtisodiy rivojlanishga erishishni maqsad qilgan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Y. Qutbiddinov. O'zbekistonning elektrotexnika sanoati. Iqtisodiy sharh. –2023.
2. Mamayusupova, Mashxura Sodiqovna (2023). Elektrotexnika sanoati mahsulotlarinig eksport salohiyatini oshirish rivojlanishning muhim omili sifatida. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (2), 65-72. doi: 10.5281/zenodo.7732836
3. Mamayusupova Mashxura Sodiqovna (2023). Tashqi savdo siyosatini mustahkamlash va eksportni rag'batlantirishda elektrotexnika sanoati mahsulotlarining roli va ahamiyati. Экономика и финансы (Узбекистан), (4 (164)), 14-20. doi: 10.34920/elf/VOL\_2023\_ISSue\_4\_3
4. Gaybullayeva G. M. (2022). Promotion And Prospects Of Green Economy In Central Asia. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 156–161. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/2660>
5. Xasanboy o'g'li, X. M. (2023). Mamlakatimiz iqtisodiyotini takomillashtirish jarayonida innovatsiyalarni joriy etishning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1, 69-72.
6. Xomidov, M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64.
7. Isroilov, X. I. (2023). The Importance Of Natural Capital Consumption In A Sustainable Economy. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(5), 593-602.
8. X. I. Isroilov. (2023). The Importance Of Innovative Technologies In Sustainable Development. European Journal of Emerging Technology and Discoveries, 1(9), 8–14. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/325>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.